

APELLYATSIYA INSTANSIYA SUDIDA ISH YURITISHNING PROTSESSUAL JIHATLARI

Sadriddinova Latofat Husniddin qizi
(TDYU, Toshkent)

Ilmiy rahbar – **D.J.Suyunova**,
yuridik fanlar doktori

Apellyatsiya instansiyasi apellyatsiya shikoyati yoki protestini faqat ularni bergan shaxsga nisbatan va ular qaratilgan shaxsga nisbatan hamda apellyatsiya shikoyati yoxud protestni bergan shaxsning protsessual maqomiga munosib tarzdgina ko'rib chiqadi.

Apellyatsiya instansiyasi apellyatsiya shikoyatlari yoki protestlarida ifodalangan asoslar va talablardan tashqari, ishning ham huquqiy, ham faktik tomonlarini ko'rib chiqishi shart. Bunda apellyatsiya instansiyasi jinoyat ishini apellyatsiya shikoyati bermagan yoki ushbu shikoyatga aloqasi bo'lmagan tomonlarga nisbatan ham ko'rib chiqadi. Bunda ularga nisbatan ham ularning holatini og'irlashtirmay turib qaror chiqarishga haqli bo'ladi.

Prokuror tараflardan birining manfaatini ko'zlab bergan apellyatsiya protesti bo'yicha apellyatsiya instansiyasi uning holatini og'irlashtirishga haqli emas. Apellyatsiya instansiyasining raisi, ishni olib apellyatsiya shikoyati yoki protestini ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Bunday shikoyat yoxud protest tараflarni chaqirgan holda ko'rib chiqiladi.

Apellyatsiya shikoyati yoki protesti odatda qamoqda saqlanayotgan sudlanuvchining ishtirokida ko'rib chiqiladi. Lozim tarzda xabardor qilingan tараflardan birining apellyatsiya instansiyasiga kelmasligi jinoyat ishining ko'rib chiqilishiga xalaqit bermaydi, biroq zarurat bo'lganda, tараflarning hozir bo'lishini shart deb topishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyati yoki protestini ko'rib chiqishda prokurorning ishtirok etishi shart hisoblanadi. Apellyatsiya instansiyasida ish yuritish birinchi instansiya sudidagi ish yuritish qoidalari bo'yicha o'tkaziladi.

Birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest bildirish mumkin.

Birinchi instansiya sudining sud muhokamasi vaqtida chiqarilgan ajrimi ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish hukm ustidan shunday harakatlarni sodir etish bilan bir paytning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o'rinbosari esa, protest bildirishga haqlidir.

Fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari hukmning fuqaroviy da'voga daxldor qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Sud tomonidan oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmning oqlash sabablari hamda asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Ishda taraf bo'lmagan shaxslar ham sud hukmining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qismi ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berishga haqlidir.

Qonuniy kuchga kirmagan hukmlar ustidan apellyatsiya tartibida quyidagicha shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin:

- 1) jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining hukmi ustidan - Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar, Toshkent shahar sudiga;
- 2) hududiy harbiy sudlarning hukmi ustidan - O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyat, Toshkent shahar sudining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hukmi ustidan - O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hukmi ustidan - mazkur sudning Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga.

Apellyatsiya shikoyatlari va protestlari hukm chiqargan sud orqali beriladi. Shikoyat yoki protest bevosita apellyatsiya instansiyasi sudiga berilgan taqdirda, sud ularni hukm chiqargan sudga Jinoyat-protsessual kodeksining 497⁶-moddasida bayon etilgan talablarni bajarish uchun yuboradi.

Apellyatsiya shikoyati va protestlari hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran yigirma sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning ko'chirma nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shu muddat ichida berilishi mumkin.

Hukm ustidan shikoyat va protest berish uchun belgilangan muddat ichida ish suddan talab qilib olinishi mumkin emas. Taraflar shu vaqt mobaynida ish bilan sud binosida tanishishga haqli.

Belgilangan muddat o'tgandan keyin berilgan shikoyat yoki protest oqibatsiz qoldiriladi, bu haqida ularni bergan shaxslarga xabar qilinadi.

Hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish muddati uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan hollarda apellyatsiya shikoyati yoki protesti berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar hukm chiqargan sudga muddatni tiklash so'ralgan iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Zarur hollarda, bu masala iltimosnoma bergan shaxsning ishtirokida hal qilinadi.

Sudning o'tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan apellyatsiya instansiyasi sudiga xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin bo'lib, u mazkur ajrimni bekor qilishga, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklashga va apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ishni ko'rishga yoxud ishni hukm chiqargan sudga Jinoyat-protsessual kodeksi 497⁶-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan talablarni bajarish uchun yuborishga haqli.

Hukm chiqargan sud apellyatsiya shikoyati, protesti berilganligi to'g'risida mahkumni, oqlangan shaxsni, ularning himoyachilarini, qonuniy vakilini, jabrlanuvchini, uning vakilini, shuningdek fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni, ularning vakillarini agar shikoyat, protest ularning manfaatlariga daxldor bo'lsa xabardor qiladi.

Ushbu shaxslarga shikoyatning, protestning ko'chirma nusxalari yoxud hukm chiqargan sudning internet-resursi orqali ularning elektron nusxalari bilan tanishish mumkinligi to'g'risida xabarnoma yuboriladi. Bunda taraflarga shikoyat, protest yuzasidan o'z e'tirozlarini yozma shaklda yoxud elektron hujjat tarzida berish huquqi ularni taqdim etish muddati ko'rsatilgan holda tushuntiriladi. Shikoyat, protest ustidan kelib tushgan e'tirozlar ishga qo'shib qo'yiladi.

Taraflar apellyatsiya shikoyatiga, protestiga doir e'tiroz bilan birga alohida holda yangi materiallarni taqdim etishga yoxud ularni talab qilib olish va tekshirish, shuningdek o'zlari ko'rsatgan jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni sudga chaqirish va so'roq qilish haqida iltimosnoma berishga haqli. Apellyatsiya shikoyati yoki protesti berilishi hukmning qonuniy kuchga kirishini va uning ijro ettirilishini to'xtatib turadi.

Hukm ustidan shikoyat berish va protest bildirish uchun belgilangan muddat tugagach, hukm chiqargan sud Jinoyat-protsessual kodeksining 497⁶-moddasida nazarda tutilgan talablarni bajarib, ishni shikoyatlar, protestlar hamda ular yuzasidan bildirilgan e'tirozlar, shuningdek taqdim etilgan qo'shimcha materiallar bilan birga o'n kundan kechiktirmay apellyatsiya instansiyasi sudiga yuboradi.

Bu muddat alohida hollarda yuqori sud raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan ko'pi bilan yigirma kunga uzaytirilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyati va protestida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) shikoyat, protest yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat bergan shaxs, uning protsessual mavqei, yashash joyi yoki turish manzili to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 3) hukmni chiqargan sudning nomi, sud ishining raqami, hukm chiqarilgan sana, shikoyat berilayotgan va protest bildirilayotgan hukm kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 4) shikoyat, protest bergan shaxsning vajlari, uning fikriga ko'ra hukm yoki boshqa qarorning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi hamda iltimosining mohiyati;

5) shikoyat, protest bergan shaxs o'z talablarini asoslayotgan, shu jumladan birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirilmagan dalillar;

6) yangidan taqdim etilayotgan dalillar va ularning birinchi instansiya sudiga taqdim etilmaganligi sabablari;

7) shikoyatga, protestga ilova qilinayotgan materiallar ro'yxati;

8) shikoyat, protest berilgan sana hamda shikoyat, protest berayotgan shaxsning imzosi.

Agar apellyatsiya shikoyatining, protestining mazmuni ko'rsatilgan talablarga javob bermasa va bu kelgusida ishni mazmunan ko'rib chiqishga to'sqinlik qilsa, sudya apellyatsiya shikoyatini, protestini uni bergan shaxsga qaytarish to'g'risida apellyatsiya shikoyatini yoki protestini qayta tuzish uchun muddatni belgilagan holda uch kunlik muddatda ajrim chiqaradi.

Sudyaning apellyatsiya shikoyatini, protestini qaytarish to'g'risidagi ajrimi talablari bajarilmagan va apellyatsiya shikoyati, protesti belgilangan vaqtda kelib tushmagan hollarda, u berilmagan deb hisoblanadi. Bunday holda hukm qonuniy kuchga kirgan deb hisoblanadi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxs apellyatsiya instansiyasi sudining majlisi boshlanguniga qadar uni o'zgartirishga yoki yangi vajlar bilan to'ldirishga haqli.

Hukm ustidan shikoyat (protest) berish muddati o'tganidan keyin berilgan apellyatsiya protestiga, jabrlanuvchining yoki uning vakilining apellyatsiya shikoyatiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritishda mahkumning ahvolini og'irlashtirish to'g'risida masala, agar bunday talab dastlabki shikoyatda, protestda mavjud bo'lmasa, qo'yilishi mumkin emas.

Hukm ustidan shikoyat qilish muddati o'tganidan keyin ishga kirishgan himoyachi apellyatsiya shikoyatini o'zgartirishi yoki uni yangi vajlar bilan to'ldirishi, ilgari ishda ishtirok etgan himoyachi tomonidan berilgan shikoyat vajlariga qo'shimcha asoslar taqdim etishi mumkin.

Hukm ustidan shikoyat bergan yoki protest bildirgan shaxs o'z shikoyatini yoki protestini qaytarib olishga haqli. Yuqori turuvchi prokuror ham protestni qaytarib olish huquqiga ega.

Mahkumning himoyachisi, qonuniy vakili o'z shikoyatini faqat mahkumning roziligi bilan qaytarib olishga haqli.

Mahkum himoyachi tomonidan berilgan shikoyatni qaytarib olishga haqli.

Apellyatsiya shikoyatini yoki protestini qaytarib olishga apellyatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Ish bo'yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kunlik muddatda Jinoyat-protsessual kodeksining 497²-moddasida nazarda tutilgan shaxslar tomonidan xususiy shikoyat yoki xususiy protest berilishi mumkin.

Hukm chiqarish bilan yakunlangan sud muhokamasi chog'ida chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat berilgan yoxud protest bildirilgan taqdirda, hukm ustidan shikoyat va protest berish uchun belgilangan muddat tugagandan keyingina ish apellyatsiya instansiyasi sudiga yuboriladi.

Sud muhokamasi chog'ida chiqarilgan va dalillarni tekshirish tartibiga, jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomalariga, ehtiyot chorasini tanlashga, uni o'zgartirishga yoki bekor qilishga, shuningdek sud majlisi zalida tartib saqlashga taalluqli ajrimlar ustidan shikoyat berish va protest bildirish mumkin emas. Ularga qarshi e'tirozlar apellyatsiya shikoyatiga yoki apellyatsiya protestiga kiritilishi mumkin.

Ushbu ish bo'yicha taraf hisoblanmagan shaxslar ham sud ajrimi ustidan, agar ajrim ularning manfaatlariga daxldor bo'lsa, shikoyat berishga haqlidir.

Birinchi instansiya sudi jinoyat ishi apellyatsiya instansiyasi sudiga yuborilganligi to'g'risida Jinoyat-protsessual kodeksining 497²-moddasida ko'rsatilgan shaxslarni xabardor qiladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha haqiqiy holatlar aniqlanishining to'liqligini va jinoyat qonuni normalari to'g'ri qo'llanilganligini, ish yuritishni amalga oshirish chog'ida jinoyat-protsessual qonun normalariga rioya etilgan-etilmaganligini, birinchi instansiya sudi hukmining, ajrimining qonuniyligi, asoslilik va adolatlilikini ishda mavjud bo'lgan va apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirilgan dalillar bo'yicha tekshiradi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini ish shikoyat yoki protest bilan birga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh sutkadan kechiktirmay ko'rishga kirishishi kerak.

Ish o'ta murakkab bo'lgan taqdirda va boshqa alohida hollarda tegishli sud raisi bu muddatni ko'pi bilan o'n besh sutkaga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o'rinbosari esa ko'pi bilan bir oyga uzaytirishi mumkin.

Ishni ko'rish muddati uzaytirilganligi haqida jinoyat protsessining manfaatdor ishtirokchilari xabardor qilinishi kerak.

Apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan jinoyat ishini ko'rish davomiyligi uni ko'rish boshlangan kundan e'tiboran ikki oydan oshmasligi kerak.

Sudya apellyatsiya shikoyati, protesti bilan kelib tushgan jinoyat ishini o'rganib, sud majlisini tayinlash to'g'risida yetti sutka ichida ajrim chiqaradi va unda quyidagi masalalar hal etiladi:

- 1) jinoyat ishini ko'rib chiqish joyi, sanasi va boshlanish vaqti to'g'risidagi;
 - 2) taraflarni, shuningdek guvohlarni, ekspertlarni va boshqa shaxslarni sud majlisiga chaqirish, shikoyatda, protestda ko'rsatilgan qo'shimcha dalillarni, agar mazkur iltimosnomani asosli deb topsa, talab qilib olish to'g'risidagi;
 - 3) JPKning 19-moddasida nazarda tutilgan hollarda jinoyat ishini yopiq sud majlisida ko'rish to'g'risidagi;
 - 4) qamoqda yoki uy qamog'ida saqlanayotgan mahkumning sud majlisida ishtirok etishi to'g'risidagi.
- Ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran uch sutka ichida protsess ishtirokchilariga sud majlisi tayinlanganligi haqida xabarnoma yuboriladi.

Agar jinoyat ishini o'rganish chog'ida birinchi instansiya sudi tomonidan JK 497⁶-moddasi ikkinchi qismining talablari bajarilmaganligi aniqlansa, sudya apellyatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rib chiqishga monelik qiluvchi holatlarni bartaraf etish uchun jinoyat ishini shu sudga qaytaradi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi majlisida quyidagilar ishtirok etishi shart:

- 1) tegishincha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurori, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan vakolat berilgan prokuror;
- 2) mahkum, oqlangan shaxs yoki o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxs- mazkur shaxs sud majlisida ishtirok etish to'g'risida iltimosnoma bergan yoki sud mazkur shaxsning sud majlisida ishtirok etishini zarur deb topgan hollarda;
- 3) himoyachi - JKning 51 va 52-moddalarida ko'rsatilgan hollarda.

Qamoqda yoki uy qamog'ida saqlanayotgan va apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqishda hozir bo'lish istagini bildirgan mahkumga sud majlisida bevosita yoki videokonferensaloqa tizimidan foydalanish orqali ishtirok etish huquqi ta'minlanadi.

Apellyatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishi birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalarini bo'yicha, yuqoridagi qoidalar inobatga olingan holda ko'riladi.

Raislik qiluvchi sud majlisini ochadi hamda qanday jinoyat ishi va kimning apellyatsiya shikoyati, protesti bo'yicha ko'rilishini e'lon qiladi.

Raislik qiluvchi sud tarkibini e'lon qiladi, prokurorning, himoyachining, sud majlisi kotibining va, agar sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, tarjimonning familiyasi, ismini va otasining ismini ma'lum qiladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi majlisining joyi, sanasi va vaqti to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi jinoyat ishini ko'rishga monelik qilmaydi, bundan sud majlisida ishtirok etishi shart bo'lgan shaxslar mustasno.

Raislik qiluvchi hozir bo'lgan jinoyat protsessi ishtirokchilariga ularning huquqlarini tushuntiradi va ularda rad qilishga oid arzlari va iltimosnomalar bor-yo'qligini, apellyatsiya shikoyatida, protestida bayon etilgan iltimoslarni quvvatlashini yoki quvvatlamasligini aniqlaydi. Bunday iltimoslar mavjud bo'lganda sud ular bo'yicha ajrim chiqaradi.

Sud muhokamasi sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. U birinchi instansiya sudi hukmining yoki ajrimining mazmunini, apellyatsiya shikoyatining, protestining mazmunini va unga qarshi e'tirozlarning mohiyatini qisqacha bayon etadi.

Raislik qiluvchi apellyatsiya shikoyati bergan shaxsga, apellyatsiya shikoyati va protesti kimga nisbatan berilgan bo'lsa o'sha shaxsga, ularning himoyachilari va vakillariga, so'ngra esa prokurorga so'z beradi. Ish bo'yicha bir nechta shikoyat mavjud bo'lgan taqdirda, so'zga chiqish navbati sud tomonidan taraflarning fikri inobatga olingan holda belgilanadi. Agar berilgan apellyatsiya shikoyatlari orasida prokurorning apellyatsiya protesti bo'lsa, so'z birinchi navbatda unga beriladi.

Sud taraflarning soʻzlarini eshitib, hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini lozim darajada tekshirib koʻrishni taʼminlash zaruratidan kelib chiqib, bevosita sud majlisida tekshiriladigan dalillar hajmini aniqlash toʻgʻrisida, sud majlisiga sudlanuvchini, jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspertlar va zarurat boʻlsa, boshqa shaxslarni chaqirish haqida, sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini saqlab qolish, tanlash, bekor qilish yoki oʻzgartirish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

Shundan keyin sud sud majlisiga chaqirilgan sudlanuvchini, guvohlarni, jabrlanuvchilarni soʻroq qilish yoʻli bilan dalillarni tekshirishga, shuningdek taraflarning iltimosi boʻyicha hamda oʻzining tashabbusi bilan hujjatlarni, bayonnomalarni va ishga oid boshqa materiallarni oʻqib eshittirishga kirishadi. Dalillarni tekshirish tartibi taraflarning fikrlari inobatga olingan holda sud tomonidan belgilanadi. Taraflar apellyatsiya instansiyasi sudiga apellyatsiya shikoyatida, protestida keltirilgan vajlarni tasdiqlab yoki inkor etib, qoʻshimcha materiallar taqdim etishga haqli.

Birinchi instansiya sudida soʻroq qilingan guvohlar, agar sud buni zarur deb topsa, apellyatsiya instansiyasi sudida soʻroq qilinadilar.

Taraflarning dalillarni, shu jumladan birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirilmagan dalillarni tekshirish toʻgʻrisidagi va sud majlisiga guvohlar, ekspertlarni hamda boshqa shaxslarni chaqirish toʻgʻrisidagi iltimosnomalari JK 438-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan tartibda sud tomonidan hal etiladi. Bunda sud iltimosnomani qanoatlantirishni faqat u birinchi instansiya sudi tomonidan qanoatlantirilmaganligiga asoslanib rad etishga haqli emas.

Birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirilmagan dalillar (yangi dalillar) sud tomonidan qabul qilinadi, bunda ularni tekshirish toʻgʻrisida iltimosnoma bergan shaxs oʻziga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra bu dalillarni birinchi instansiya sudiga taqdim etishga imkoniyati boʻlmaganligini asoslab berishi kerak.

Apellyatsiya instansiyasi sudi dalillarni videokonferentsaloqa tizimlaridan foydalangan holda tekshirishga haqli.

Sud tergovni tugallangach, sud taraflardan sud tergoviga qoʻshimcha qilish yuzasidan iltimoslari bor-yoʻqligini surishtiradi. Sud bu iltimoslarni hal etadi va shundan keyin taraflarning muzokaralariga oʻtadi.

Sud muzokaralari JKning 449-moddasi qoidalari asosida oʻtkaziladi, bunda shikoyat, protest bergan shaxs birinchi boʻlib soʻzga chiqadi.

Taraflarning muzokaralari tamom boʻlganidan keyin raislik qiluvchi sudlanuvchiga, agar u sud majlisida ishtirok etayotgan boʻlsa, oxirgi soʻz beradi, shundan keyin sud qaror chiqarish uchun maslahatxonaga kiradi.